

(Rivoyatlar)

Horun ar-Rashid tush ko'rsa, o'ttiz ikki tishi tushib ketganmish. Xalifaning kayfi uchib munajjim va muabbirlarni chaqiribdi va ulardan ko'rgan tushining ta'birini so'rabdi.

Shunda muabbirlardan biri:

-Ey, amir al-mo'minin, butun qavm-qarindoshing va urug'-aymog'ing o'lib, o'zing yakkayu yolg'iz qolar ekansan, — debdi.

Horun ar-Rashidning yurak-bag'ri ezilib, sovuq nafasi uchun bu muabbimi yuz darra uringlar, deb farmon beribdi. Bu sovuq karomat bari bir unga orom bermabdi va ertasiga boshqa muabbirni chaqirib, bu tushning ta'birini so'rabdi.

Ikkinchi muabbir:

-Ey, amir al-mo'minin, xudoyi taolo sizga benihoya umr, beqiyos davlat bergan, siz barcha qavm-qarindosh va avlodingizga nisbatan uzoq umr ko'rar ekansiz, — debdi.

-Bu so'zdan Horun sevinib ketibdi va shunday debdi:

-Ikkalasi ham bir gapni aytdi, ammo bunisi fikrini odob bilan, chiroyli iboralar topib aytgani uchun yuz dinor mukofotga sazovor bo'ldi, birinchisi tomdan tarasha tushganday qo'pol so'zlar aytib qo'yib yuz darra yedi.



Hotamtoydan, o'zingdan ham saxiyoq odamni uchratganmisan, deb so'rabdilar.

Hotamtoy:

-Ha, ko'rganman, — deb javob beribdi.

-Qayerda ko'rgansan?

-Cho'lda ketayotganimda uzoqdan ko'zimga ikki xonadan iborat ko'rimsizgina bir kulba, kulbaning oldida bog'lab qo'yilgan bir echki ko'rindi. U yerga yetib borganimda ot dukurini eshitib, ichkaridan bir mo'ysafid menga peshvoz chiqdi va otdan tushishimga yordam qildi. Bir ozdan keyin uning o'g'li kelib ochiq chehra bilan salomlashib, hol-ahvol so'radi. Mo'ysafid o'g'liga qarab:

-Bolam, o'sha echkini bismil qilib taom hozirla, mehmonni ziyofat qilish kerak, — dedi.

O'g'li:

-Ijzat bering, avval borib, o'tin terib kelay, — dedi. Mo'ysafid:

-Sen cho'lga borib, o'tin olib kelguningcha vaqt ketadi. Mehmonni och olib o'tirish odobdan emas, — dedi.

-Mo'ysafidning ikkita nayzasi bor ekan, o'sha nayzasini tizzasiga urib sindirdi, echkini so'ydi va birpasda ovqat tayyorlab dasturxonga olib kelib qo'ydi.

Uyning uyoq-buyog'iga razm solib qaradim, uning butun bor-yo'g'i shu nayzagina ekan, uni ham mehmonning poyqadamiga nisor qildi.

Choldan, meni taniysanmi, deb so'radim.

Chol:

-Yo'q, tanimayman, — dedi.

-Men Hotamtoy bo'laman, saroyimga kel, bu qilgan yaxshiliklaringning hissasini chiqaray, — dedim.

Bunga javoban chol:

-Biz mehmondan ziyofat puli olmaymiz, — dedi va shuncha qilsam ham mendan hech qanday hadya qabul qilmadi.

Men mana shu mo‘ysafidni o‘zimdan saxiyoq deb bilaman.

**Muhammad Avfiyning
“Ibratli rivoyatlar” kitobidan**